

Ma'no ko'chish usullari.

»»» 1 «««

1. Metafora usulida ma'no ko'chishi mavjud gapni toping.

- A) Zebining qish ichi siqilib, **zanglab chiqqan** ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan. (Cho'lpon)
B) Olti so'mini yubor, uchi yoningda qolsin. (Oybek)
C) Ikki juft ko'z bir-biriga tikilib qoldi.(Shuhrat)
D) Navoiyni qo'limga oldim.

2. Urush ko'plarning yostig'ini quritdi.

Berilgan gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?

A)	B)	C)	D)
metoafora	metonimiya	sinekdoxa	vazifadoshlik

3. Sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chishi qaysi javobda uchraydi?

- A) Hayot ummonida bir-birin bilmay, Shunday, biz to'qnashib qoldik daf'atan.
B) Bizning mакtab ham ushbu tanlovda qatnashadi.
C) Kitob ko'rмagan kalla - giyoh unmagan dala.
D) Butun xalqni bir bayroq ostida birlashtirish oson ish emas.

4.

Ishqingda **qora boshim** oqardi,
Bir boqmadi ko'z qarog'i birla.

Ajratib ko'rsatilgan so'zda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

- A) metonimiya **B) sinekdoxa**
C) metafora D) vazifadoshlik

5. Predmetlar o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan qatorni aniqlang.

- A) samolyot dumii B) elektr chirog'i
C) qozon qulog'i D) ko'chaning boshi

6. Predmetlar o'rtasidagi joylashgan o'rniga nisbatan o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan qatorni aniqlang.

- A) elektr chirog'i **B) samolyot dumii**
C) qozon qulog'i D) oltin bosh

7. Shartmi ichmak har bir **qadahni** yo'q demay.

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora **B) metonimiya**
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

8.

Ul oyki, kula-kula qirog'latdi meni,
Yig'latdi meni demayki, siqtatdi meni.

Ushbu baytdagi "ul oy" so'zi orqali qaysi ma'no ko'chishi sodir bo'lgan?

- A) metonimiya B) metafora

C) sinekdoxa

D) vazifadoshlik

9. Biror predmet belgisining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirish asosida nom ko'chishi nima deb yuritiladi?

- A) metafora B) metonimiya
C) sinekdoxa D) kinoya

10. Shaxs va predmet nomi o'rnida biror **a'zo, bo'lak** orqali o'sha tushunchaning berilishi nima deb yuritiladi?

- A) metafora B) metonimiya
C) sinekdoxa D) kinoya

11.

Bo'ri so'radi: "Hoy qizil shapkacha, qayerga ketyapsan?" "Buvimnikiga", - javob berdi u.

Gapdagi ko'chim turini aniqlang.

A) metofora

B) metonimiya

C) sinikdoha

D) vazifadoshlik

12. Shaxs yoki predmetni unga bog'liq bo'lgan boshqa bir nom bilan ifodalash nima deb yuritiladi?

- A) metafora **B) metonimiya**
C) sinekdoxa D) kinoya

13. Voy, manavi bolaning **shirinligini!**

Ushbu gapdagi ma'no ko'chishini aniqlang.

- A) metafora B) metonimiya
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

14. Men Farmonbibi xonardoniga **radiodan** keldim.

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora **B) metonimiya**
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

15. To'g'ri gap **tuqqaningga** yoqmaydi.

Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so'zdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora **B) metonimiya**
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

16. Normatni bunchalik **cho'kib qolgan** deb o'ylamagandim.

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) sinekdoxa B) metonimiya
 C) metafora D) vazifadoshlik

17. Shunday qilib **majlis** qaror qabul qildi.

Ushbu gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang.

- A) metafora B) vazifadoshlik
 C) metonimiya D) sinekdoxa

18. Muqimiysi bir-bir varaqlab ichimda o‘qiy boshladim.

Ushbu gapdagi ma’no ko‘chishini aniqlang.

- A) sinekdoxa B) vazifadoshlik
 C) metafora D) metonimiya

19. Ikki kundan beri **tuz** totmagan edi.

Ushbu gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang.

A)	B)	C)	D)
metoafora	metonimiya	sinekdoha	vazifadoshlik

20. Ehtiyyot bo‘lib gapir, bo‘tam, axir oramizda **qulqolar** yo‘q emas.

Ushbu gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang.

- A) sinekdoxa B) vazifadoshlik
 C) metafora D) metonimiya

21. Har odamning **gullagan fasli** bo‘ladi -umrning gurkiragan davri!

Ushbu gapda ma’no ko‘chishining qaysi turi ifodalangan?

- A) metafora B) metonimiya
 C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

22. Abdulla Qahhor qalami bilan ming-minglab o‘quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari **yuragiga chiroq yoqib ketdi**.

Berilgan gapda ostiga chizilgan so‘zda qaysi usulda ma’no ko‘chgan?

- A) metonimiya B) metafora
 C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

23. Tashqarida o‘tlab yurgan qo‘y-qo‘zilarni ko‘rib: "Qiziq, bu yerdagi **tuyoqlar** soni nechta ekan-a?" – deb qoldi.

Ushbu gapda ma’no ko‘chish usulini aniqlang.

- A) metafora B) metonimiya
 C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

24. Quyida berilganlarning qaysilarida sinekdoxa usuli bilan ma’no ko‘chishi mavjud?

1. Besh qo‘lini og‘ziga tiqmoq;

2. Besh qo‘l barobar emas.

3. Ko‘zlar, yuzlar boqar edi biz tomon.

4. Keling, mehmon, eshikka kiraylik.

- A) 1, 2 B) 1, 2, 3
 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

25. Bulutning orasidan Quyosh **kilib qaraydi**, Majnuntolning yuvilgan Sochlarini taraydi.

Mazkur she’riy parchada ma’no ko‘chishining qaysi usulidan unumli foydalilanigan?

- A) metafora B) metonimiya
 C) sinekdoxa D) kinoya

26. Qaysi javobdagagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zda metonimiya usuli orqali ma’no ko‘chishi yuz bergan?


- A) Tez orada "Sohibqiron"sahna yuzini ko‘radi.
 B) Bu g‘arib boshnimalarni ko‘rmagan, jigarim.
 C) Negadir ishtaham qochib ketdi.
 D) Shamol kuchayib olovning tiliyana ham uzunlashdi.

27. Yunoncha "qayta nomlash" ma’nosini ifodalovchi atamani belgilang.

- A) metafora B) metonimiya
 C) sinekdoxa D) polisemija

28. Nasrulla, siz Hasanboydan "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati" gazetasini so‘rab yuribsiz, u bo‘lsa **"Darakchi"** ni olib kelibdi.

Ushbu gapda qo‘llangan ma’no ko‘chish turini belgilang.



29. Nazarimda, yuragimning urishini butun **dunyo** eshitayotgandek edi.

Ushbu gapda qaysi ma’no ko‘chish turi qo‘llangan?

- A) metafora B) metonimiya
 C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

30. Rost aytasiz, Maxsum aka, men axir maktabda ishlayman, boshlang‘ich sinflar uchun **"G‘uncha"** yaxshi.

Ushbu gapda ma’no ko‘chishining qaysi turi qo‘llangan?

- A) metafora B) metonimiya
 C) sinekdoxa D) vazifadoshlik